



QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ -5113- son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-iyul)

67,8%



**Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi**

3527,3
ming so'm




**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi**

65,1%




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi**




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- avgust holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-iyul)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

61,7% (1-avgust holatiga ko'ra) 2024



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi

2020



52,8%

Soni, birlikda

2024

15223

2023

16822

2022

18777

2021

16018

2020

11975

Soni, birlikda

2024

1644

2023

2131

2022

3072

2021

3361

2020

1517

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (yanvar-iyul)

2024

59,3%



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi

2020

51,0%




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-iyul)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-iyul)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023-yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)

Hududlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati¹⁾	12618,5	100,0	111,8
Qarshi shahar	3600,4	28,5	118,9
Shahrisabz tumani	614,9	4,9	111,0
G'uzor tumani	516,6	4,1	110,0
Dehqonobod tumani	375,2	3	109,2
Qamashi tumani	674,4	5,3	107,1
Qarshi tumani	765,0	6,1	111,8
Koson tumani	827,2	6,5	109,4
Kitob tumani	807,9	6,4	109,8
Mirishkor tumani	555,9	4,4	107,8
Muborak tumani	807,9	6,4	109,9
Nishon tumani	464,0	3,7	108,9
Kasbi tumani	549,9	4,4	106,5
Ko'kdala tumani	202,5	1,6	108,0
Chiroqchi tumani	467,5	3,7	109,6
Shahrisabz tumani	731,0	5,8	109,3
Yakkabog' tumani	658,1	5,2	107,9

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar-iyul oylarida)




Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-iyul oylarida)

■ Hajmi, ming so'mda ◆ O'sish sur'ati

Hudud nomi	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati
Yakkabog' tumani	2319,1	105,6 %
Shahrisabz tumani	3100,3	107,5 %
Chiroqchi tumani	1736,1	106,7 %
Ko'kdala tumani	1066,1	105,0 %
Kasbi tumani	2569,7	104,2 %
Nishon tumani	2770,3	106,3 %
Muborak tumani	8613,0	107,9 %
Mirishkor tumani	4272,7	105,5 %
Kitob tumani	2853,6	107,6 %
Koson tumani	2637,8	106,9 %
Qarshi tumani	2793,9	109,0 %
Qamashi tumani	2290,0	104,8 %
Dehqonobod tumani	2340,4	107,0 %
G'uzor tumani	2313,6	107,6 %
Shahrisabz shahar	4160,7	109,1 %
Qarshi shahar	12 130,6	116,3 %

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024- yil yanvar –iyul oylarida)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **65,1** foizni, shu jumladan, **8211,1** mlrd so'm hajmni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalar tashkil etdi.



Hajmi, mlrd. so'mda

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Yakkabog' tumani	523,4	+5,4 %
Shahrisabz tumani	543,8	+11,6 %
Chiroqchi tumani	358,2	+10,2 %
Ko'kdala tumani	163,7	+8,4 %
Kasbi tumani	443,9	+10,0 %
Nishon tumani	356,7	+10,0 %
Muborak tumani	532,9	+12,5 %
Mirishkor tumani	469,3	+8,6 %
Kitob tumani	661,6	+10,4 %
Koson tumani	668,2	+9,3 %
Qarshi tumani	565,8	+11,9 %
Qamashi tumani	562,5	+7,4 %
Dehqonobod tumani	282,2	+11,1 %
G'uzor tumani	356,2	+10,9 %
Shahrisabz shahar	311,2	+11,9 %
Qarshi shahar	1411,3	+13,6 %

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-iyul)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	12 618,5	100,0	111,8
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	632,5	5,0	114,7
Moliyaviy xizmatlar	2 406,1	19,1	122,9
Transport xizmatlari	2 362,3	18,7	107,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 206,0	17,5	109,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	389,6	3,1	105,6
Savdo xizmatlari	3 805,4	30,2	109,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	296,0	2,3	110,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	627,6	5,0	122,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	197,2	1,6	111,3
Ijara xizmatlari	283,4	2,2	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	495,5	3,9	110,5
Shaxsiy xizmatlar	480,4	3,8	107,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	163,5	1,3	110,3
Boshqa xizmatlar	479,0	3,8	104,3

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)



■ Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sish sur'ati

Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)


Qarshi shahar	1261,7	+36,9%
Shahrisabz shahar	178,5	+19,5%
G'uzor tumani	65,8	+21,6%
Dehqonobod tumani	43,4	+8,0%
Qamashi tumnai	64,2	+5,9%
Qarshi tumani	63,0	+7,6%
Koson tumani	77,7	+12,9%
Kitob tumani	100,9	+7,1%
Mirishkor tumani	56,7	+7,8%
Muborak tumani	133,0	+5,6%
Nishon tumani	41,2	+5,8%
Kasbi tumani	47,9	+10,1%
Ko'kdala tumani	12,3	+8,8%
Chiroqchi tumani	54,0	+5,3%
Shahrisabz tumani	143,1	+4,6%
Yakkabog' tumani	62,9	+25,3%

— Hajmi, mlrd. so'mda

○ O'sishi

Moliyaviy xizmatlar tarkibi


(2024- yil yanvar-iyul oylarida)



Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **52,4** foizni yoki **2 406,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yilning yanvar-iyul** oylariga nisbatan Qarshi shahrida yuqori o'sish sur'ati **136,9** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (2024- yil yanvar-iyul oylarida)

2024-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **83,2** foizni tashkil etdi.



■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati

Qarshi shahar	603,4
Shahrisabz shahar	111,2
G'uzor tumani	149,4
Dehqonobod tumani	95,2
Qamashi tumani	270,7
Qarshi tumani	267,4
Koson tumani	354,6
Kitob tumani	345,7
Mirishkor tumani	195,9
Muborak tumani	275,4
Nishon tumani	128,4
Kasbi tumani	248,2
Ko'kdala tumani	60,9
Chiroqchi tumani	203,6
Shahrisabz tumani	216,0
Yakkabog' tumani	279,4

● +13,5 %
● +10,6 %
● +3,9 %
● +6,5 %
● +9,7 %
● +9,6 %
● +11,1 %
● +11,7 %
● +8,4 %
● +5,8 %
● +9,2%
● +7,0 %
● +5,8 %
● +14,3 %
● +10,4 %
● +9,4 %

Hududlar kesimida savdo xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)



Savdo xizmatlari umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **15,9** foizni yoki **603,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-iyul** oyiga nisbatan Qashqadaryo viloyatida **113,5** % yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sishi


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **98,2 foiz**.

Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **438,6 mlrd.** So'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **106,9 foizni** tashkil etgan.

Transport xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)



Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-iyul oylarida)

Yakkabog' tumani	143,1	+6,3%
Shahrisabz tumani	198,3	+12,1%
Chiroqchi tumani	78,6	+3,1%
Ko'kdala tumani	40,9	+5,8%
Kasbi tumani	115,0	+1,1%
Nishon tumani	114,7	+7,2%
Muborak tumani	151,8	+15,0%
Mirishkor tumani	173,3	+5,2%
Kitob tumani	154,7	+10,7%
Koson tumani	203,0	+8,8%
Qarshi tumani	171,2	+1,1%
Qamashi tumani	135,2	+3,3%
Dehqonobod tumani	79,5	+12,5%
G'uzor tumani	103,0	+10,2%
Shahrisabz shahar	61,3	+1,6%
Qarshi shahar	438,6	+6,9%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi.

2024- yilning yanvar-iyul oyiga ularning ulushi 92,7 foizni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul oylarida)

Yakkabog' tumani	43,7	+24,9%
Shahrisabz tumani	33,5	+17,6%
Chiroqchi tumani	39,9	+13,8%
Ko'kdala tumani	24,3	+14,4%
Kasbi tumani	31,1	+11,8%
Nishon tumani	25,8	+5,8%
Muborak tumani	19,5	+22,6 %
Mirishkor tumani	21,9	+6,2%
Kitob tumani	44,3	+4,9%
Koson tumani	45,0	+5,1%
Qarshi tuman	41,3	+11,8%
Qamashi tumani	40,9	+9,4%
Dehqonobod tumani	24,5	+6,7%
G'uzor tumani	31,7	+4,4%
Shahrisabz shahar	41,9	+24,2%
Qarshi shahar	123,2	+28,0%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd.so'mda

● O'sish

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yilning yanvar-iyul** oyida ulushi **5,0** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)

2024-yilning yanvar-iyul

oyida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalarining xizmatlari salmoqli qismni egallaydi.

Ularning ulushi 1,6 foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)


Yakkabog' tumani	6,4	+8,9%
Shahrisabz tumani	11,7	+15,9%
Chiroqchi tumani	3,4	+7,2%
Ko'kdala tumani	3,3	+7,9%
Kasbi tumani	5,2	+6,1%
Nishon tumani	5,2	+11,7%
Muborak tumani	10,5	+52,0%
Mirishkor tumani	4,9	+9,8%
Kitob tumani	21,7	+10,2%
Koson tumani	3,4	+15,6%
Qarshi tumani	4,0	+9,4%
Qamashi tumani	4,3	+8,2%
Dehqonobod tumani	3,5	+8,3%
G'uzor tumani	3,2	+14,3%
Shahrisabz shahar	12,5	+7,3%
Qarshi shahar	93,8	+9,3%

■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar 97,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2024-yil yanvar-iyul oylarida)

Qarshi shahar	73,6	+12,0 %
Shahrisabz shahar	21,2	+12,0 %
G'uzor tumani	21,4	+40,0 %
Dehqonobod tumani	12,2	+4,8 %
Qamashi tumani	16,3	+8,4 %
Qarshi tumani	13,1	+5,1 %
Koson tumani	18,0	+7,9 %
Kitob tumani	15,1	+6,6 %
Mirishkor tumani	9,9	+6,5 %
Muborak tumani	13,3	+7,3 %
Nishon tumani	24,5	+7,9%
Kasbi tumani	8,4	+3,3 %
Ko'kdala tumani	6,1	+6,5 %
Chiroqchi tumani	12,6	+6,7 %
Shahrisabz tumani	19,3	+3,3 %
Yakkabog' tumani	11,1	+6,6 %

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd. so'mda

● O'sishi

2024- yilning yanvar-iyul

oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – 92,2 foiz.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾ (2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024-yil yanvar-iyul oylarida)

Hudud nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	O'sishi
Qarshi shahar	153,8	+0,8 %
Shahrisabz shahar	22,2	+20,6 %
G'uzor tumani	13,9	+3,7 %
Dehqonobod tumani	7,8	+6,0 %
Qamashi tumani	8,2	+5,3 %
Qarshi tumani	12,3	+5,3 %
Koson tumani	10,9	+6,6 %
Kitob tumani	16,4	+5,7 %
Mirishkor tumani	9,0	+6,4 %
Muborak tumani	33,4	+47,0 %
Nishon tumani	49,8	+3,7 %
Kasbi tumani	13,1	+5,5 %
Ko'kdala tumani	9,2	+6,0 %
Chiroqchi tumani	8,7	+8,8 %
Shahrisabz tumani	10,6	+5,3 %
Yakkabog' tumani	10,6	+8,1 %


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlangan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda

⦿ O'sishi

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-iyul oyida, mlrd. so'mda)

Qarshi shahar	41,3	◆
Shahrisabz shahar	9,9	◆
G'uzor tumani	20,9	◆
Dehqonobod tumani	21,0	◆
Qamashi tumani	26,3	◆
Qarshi tumani	25,2	◆
Koson tumani	20,3	◆
Kitob tumani	20,4	◆
Mirishkor tumani	13,9	◆
Muborak tumani	9,6	◆
Nishon tumani	12,2	◆
Kasbi tumani	13,0	◆
Ko'kdala tumani	8,9	◆
Chiroqchi tumani	7,7	◆
Shahrisabz tumani	15,9	◆
Yakkabog' tumani	17,0	◆

2020- yilning yanvar-iyuliga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **142,3** mlrd. so'mga oshib, **283,4** mlrd. so'mga yetdi.


Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2024-yilning yanvar-iyul** oyida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **78,6** foizni tashkil etdi.



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 20,9 foizini tashkil etadi.


Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024-yil yanvar-iyul oylarida)

Qarshi shahar	77,7	+9,4%
Shahrisabz shahar	31,5	+15,3%
G'uzor tumani	32,6	+10,7%
Dehqonobod tumani	30,8	+10,0%
Qamashi tumani	36,1	+11,7%
Qarshi tumani	34,6	+10,0%
Koson tumani	29,0	+11,5%
Kitob tumani	28,8	+11,4%
Mirishkor tumani	18,3	+10,5%
Muborak tumani	28,6	+11,8%
Nishon tumani	23,1	+12,2%
Kasbi tumani	38,0	+8,1%
Ko'kdala tumani	18,7	+4,2%
Chiroqchi tumani	14,7	+10,6%
Shahrisabz tumani	30,8	+9,8%
Yakkabog' tumani	22,3	+12,1%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda O'sish

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (2024-yil yanvar-iyul oylarida)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-iyul oylarida, mlrd. so'mda)



2020-yilning yanvar-iyuliga nisbatan joriy yilning tahlil qilinayotgan davrida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **93,8** mlrd. so'mga oshib, **163,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **75,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.